



**HOZIRGI KUNDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING
O'RNI**

Atadjanova Nazokat Ilxomovna

Karimova Zivarjon Xamidovna

Davletova Zamira Urolovna

*Xorazm viloyati Gurlan tumani 24-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

*Har bir millat o'z tili ila faxr etar
Mahmudxo'ja Behbudiy*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xalq ta'lifi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, ona tili fanining o'qitilishining hozirgi kundagi o'rni hamda o'quvchilarni ona tili faniga qiziqishni inobatga olish dolzarbliji haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lif, Pisa, til, kommunikativ, ko'nikma, fanlararo, o'zga tillar, qadim turkiy til.*

Ta'lif jarayoni asosan til vositasida kechar ekan, ona tili ta'lifi ta'lif tizimidagi fanlar orasida alohida o'rin tutadi. Boshqa fanlarning o'zlashtirilishi o'quvchining o'z ona tilida yozma matnni, og'zaki matnni tushunish, o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda izchil bayon eta olish ko'nikmasi bilan bevosita bog'liq. Aytish joizki, ona tili ta'lifi har qanday bosqichdagi ta'limning negizini tashkil etadi. Tilning eng bиринчи vazifasi ma'lumotni kodlash va dekodlashdir, ya'ni so'zlovchi o'z fikrini to'g'ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunishi kerak. O'rta maktabda ona tili ta'lifi tilning aynan shu – birlamchi funktsiyasini qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta'lifi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi va unda bir qancha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilab olindi. Misol tariqasida shuni ta'kidlash joizki, 2030- yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun esa pedagoglar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalar talaygina: o'zbek tilining nufuzi, jahondagi o'rni, boshqa tillar bilan bemalol bellasha oladigan qirralarini ko'rsata olishi asosiy vazifadir. Avvalo, o'quvchini ona tili faniga qiziqtirish, unda fanga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ona tilining biz bilmagan sir - sinoatlarini ochishga o'rgatish va, eng muhimmi, amalda bajarish kerak. Shu bilan birga, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz" asari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili fanini o'qitishda turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish,



foydalani layotgan metod va usullarning o'quvchilarga qay darajada samara berayotganini aniqlash hozirgi kunda eng muhim dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo'lsa, uning o'zligi va ma'naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadri va mo'tabardir.

Qadim turkiy tilimizni ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg'ariyning: "Erdam boshi tildur", ya'ni "Barcha ezguliklar tildan boshlanur", degan so'zlarida teran haqiqat mujassam. Darhaqiqat, odamzot qalbidagi jamiki oljanob fazilatlar ona tilining betakror mo'jizasi, sehri va jozibasi bilan kamolga yetadi.

Xalqimiz tafakkurining tiniq ko'zgusi bo'lgan bu bebaho xazinani asrab-avaylash va rivojlantirish bugungi kundagi eng sharaflari vazifalarimizdan biridir.

Ulug' mutafakkir Mir Alisher Navoiy bobomizning: "Tilga e'tibor – elga e'tibor", degan dono o'gitlariga amal qilgan holda, yurtimizda til masalasida olib borilayotgan davlat siyosati inson qadrini ulug'lashga qaratilgan tub islohotlarimizga har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirish, uning hayotimizdag'i o'rni va ta'sirini oshirish borasida yangi bosqich boshlandi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Xususan, 21 oktabr – O'zbek tili bayrami kuni deb belgilangani unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Davlat tilining nufuzi va maqomini yuksaltirishga qaratilgan farmon va qarorlar, me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu yo'nalishda 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiya va alohida dastur hayotga joriy etilmoqda.

Bu haqda gapirganda, yaqinda qabul qilingan tegishli qonunlarga asosan reklama va targ'ibot materiallarini davlat tilida e'lon qilish tartiblari hamda davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda o'zbek tilini bilish darajasi bo'yicha aniq talablar belgilanganini ta'kidlash lozim.

Vazirlar Mahkamasi tarkibida Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentining faoliyati yo'lga qo'yildi. Markazda va joylarda davlat tilini o'rgatish kurslari ish olib bormoqda.

Qisqa vaqt ichida besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati", o'ndan ortiq sohaga oid atamalar lug'atlari, o'ttiz jildlik "Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi" tadqiqotlar majmuasi yaratildi.

Shu kunlarda ona tilimizda "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli yuz jildlik muhtasham to'plam nashrdan chiqayotgani, faol va iste'dodli yoshlarimizning sa'y-harakatlari bilan internet tarmog'idagi o'zbekcha ma'lumotlar elektron bazasi boyitib borilayotgani quvonarli hol, albatta.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining sara namunalari xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet elliq kitobxonlarning ham e'tiborini qozonmoqda. Iste'dodli olim va ijodkorlarimiz qalamiga mansub ilmiy va badiiy asarlar nufuzli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar o'quvchilari o'rtasida O'zbek tili va adabiyoti xalqaro olimpiadasini o'tkazish yo'lga qo'yilgani ham ona tilimizni keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida 50 millionga yaqin kishi o'zbek tilida so'zlashmoqda. Ko'plab mamlakatlarda bu go'zal va jozibali til katta ishtiyoq bilan o'rganilmoqda.



Ayni paytda, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning tili, madaniyati va qadriyatlarini asrab-avaylash hamda rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Biz bu yo'nalishda olib borayotgan ishlarimizni kelgusida ham izchil davom ettiramiz.

Jahon taraqqiyoti yutuqlari va qimmatli manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilish orqali ona tilimizni ilm-fan va innovatsiyalar tili sifatida rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratishimiz zarur.

Shu ma'noda, XX asr boshida yashab ijod qilgan, o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillaridagi so'zlarni o'z ichiga olgan beba ho lug'at kitobini yaratgan ma'rifatparvar bobomiz Ishoqxon Ibratning: "Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu Vataniy ishdir", degan hikmatli so'zlari biz uchun muhim dasturilamal, hayot yo'limizni yoritadigan mayoq bo'lib xizmat qilishi kerak.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xtaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YuNeSKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamонавиъи tillardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muammolada bo'lib, ma'lum vaqtadan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish havfida bo'lgan tillarning saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.



Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng xozir muamolada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo'lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh va Rossiya xissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda axoli 845 til va laxjada so'zlashadi. Ikkinci o'rinda esa 600 ta til va shevada so'zlashuvchi Papua — Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng ko'p aholi so'zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi o'nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemis, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jahon tillarining atigi 4 foizi Yevropa qit'asiga to'g'ri kelsa-da, eng ko'p so'zlashuvchi tillarning teng yarmi "ko'hna qita"da ekani ma'lum bo'ldi. 341 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida ko'rishini ma'lum qilgan. Tahsilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish bo'yicha o'z mavqeini oshirib borayotganini aytishadi. Vaziyatni o'rganayotgan kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni bo'yicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan bo'lsa, XXI asr o'rtalariga borib, xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin.

Mavjud tillarining 90%ning har biridan 100.000 aholi foydalanadi. Mana shuning o'ziyoq bu tillarning kelajagi qorong'uligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 357 tilda atigi 50 nafar kishi so'zlashar ekan. 46 tildan esa atigi bir kishining foydalanishi aytildi. Ularning o'limi bilan bu tillar ham yo'qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta.

YuNeSKO tomonidan nashr qilinadigan "Yo'qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlasi"da Yevropadagi 50 ta, Tinch okeani mintaqasida esa 200 ta til yo'qolib ketish arafasida ekani ta'kidlanadi. Afrikadagi 1400 ta tildan 600 tasi kelajakda, 250 tasi esa yaqin orada butunlay yo'qolishi haqida aytilmoqda.

Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me'yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo'lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o'rganishga bo'lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog'liq. Til bilgan yaxshi, ammo o'z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o'zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda.

Pedagoglardan birinchi navbatda ona tilimizning jahondagi o'rnini, nufuzini o'quvchiga chuqur, juda chuqur singdirib, mehr uyg'otib, sir - sinoatini o'rgatib, boshqa tillar bilan bellasha oladigan qirralarini ko'rsatib undan keyin o'zga tillarni egallashdagi ehtiyoj nimadan iborat ekanligini tushuntira olish talab qilinadi.

O'quvchi yangilikka intiluvchan bo'ladi. Har qanday fanni fanlararo bog'lab o'rgatish maqsadga muvofiq. O'quvchini fanga qiziqtirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi bo'lsa, undan keyin dars jarayonida qo'llay oladigan zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardir. Ona tili fani o'quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta'minlashda ham muhum o'rin egallaydi.



Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili va adabiyot fanining chiqurlashtirib o'tilishini, sifatli dars mashg'ulotlari olib borilishini, fanlararo bog'lanishlarni kengroq ta'minlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan maktablarda o'quvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilligi asosiy masaladir.

Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amaliyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi eng mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab to'g'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birkalidagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat.

Fanlarning o'qitilishiga ijobiy ta'sirlar ko'rsatish uchun metodlarning o'rni juda katta. Hozirgi davrda ona tili fani bo'yicha o'quv dastur va rejalarini yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimadir axborot berib, kimandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim.

Hayotimizda ro'y bergen, berayotgan va kelajakda ro'y beradigan jamiki narsalarni mavzular kesimida hayotdan olib, hayotga bog'lab amaliy isbotlab, amaliy ko'rsatib tasavvur uyg'otsak, yoshlar nafaqat ona tili va adabiyot fanlarida, balki boshqa fanlardan ham mantiqqa tayanib tasavvur hosil qiladilar. Ammo "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek o'quvchilar orasida hamma imkoniyat yaratilsa ham moyilligi bo'lmaslari topiladi.

Keyingi paytlarda bosqichma - bosqich rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida aynan ona tili fanining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad o'quvchi nutqini o'stirishdan iborat. Aynan darsliklar ham so'z boyligini oshirish bilan bog'liq turli mashq va topshiriqlarga urg'u bergen holda yaratilmoqda. Ya'ni so'zlarning shakl va ma'no munosabati, iboralar ma'nodoshligi, o'xshashligi, zid ma'noliligi, arxaik va tarixiy so'zlarning qo'llanilishi, matn ustida ishslash kabi mavzular rangbarangligidan iborat. Ammo aksariyat o'quvchilar bunday so'zlarni nutqini o'stirish maqsadida emas, test jarayoniga tayyorlanish uchungina ko'r - ko'rona yodlab olmoqda, xolos. O'quvchilar nutqiga e'tibor bersak, ularda ko'p hollarda



parazit so'zlarning ishlatalishini kuzatish mumkin, ya'ni haligi, nima edi, ok, good bay... va hokazo kabi. Darslikda keltirilayotgan ibora - yu nutqqa oid turli so'zlarning gap tarkibida qanday holda, qay maqsadda ishlatalishini tasavvur ham qila olmaydi. O'quvchi nutqini o'stiradigan holatlarning birinchisi, so'z boyligining ko'pligi bo'lsa, keyingisi shu so'zlarni gap tarkibida o'z o'rnida qo'llab ravon, to'g'ri nutqni shakllantirishdir. Masalan, ona tili darslarida turli metodlardan: "Aqliy hujum", "FSMU", "Baliq skeleti", "Sarlavhabizdan, matni sizdan" va hokazolardan foydalaniladi hamda ayrim hollarda kutilgan natijaga erishish mumkin. Bu metodlarning ayrimlari qo'llanilganda bir muddat o'quvchi o'ylashi uchun vaqt ham ajratiladi, ammo bu usullarning bari o'quvchi nutqini to'la shakllantirib bera olmasligi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu metodlar eskirib o'rniga yangi - yangi metodlar paydo bo'lib boraveradi.

O'quvchiga monitor ekranlarida yoki ko'rgazma sifatida (albatta, rivojlanib borayotgan mamlakatimiz maktablarida yaqin kelajakda har bir sinf xonalari zamonaviy jihozlanishiga, har bir sinf xonasida kompyuter, elektron doska bo'lishiga ishonamiz) biror bir surat ko'rsatilib o'ylash uchun vaqt ajratilmay surat asosida matn tuzilish, tuzayotgan matnida: har bir gap tarkibidagi so'zlar takroriga yo'l qo'ymaslik, faqat sinonimlaridan foydalanish, gaplarni tutilmay ravon tarzda tuzish, faqat o'zbek tilidan foydalanish shart qilib qo'yiladi. Bu holat bir martada natija bermasligi mumkin, ammo har darsda foydalanilsa, o'quvchi nutqida ravonlik, o'sish kuzatilishi aniq. Undan tashqari o'quvchining eshitib tushunishini rivojlantirish uchun biror o'zları adabiyot darslarida o'qigan badiiy asardan parcha eshittirilib, parchani o'quvchidan xuddi o'ziday so'zlab berish talab qilinsa, o'quvchining nutqini o'stirishda kutilgan natijaga erishish mumkin. O'quvchilarni bu metodlarda qiziqish uyg'otish uchun usullarni "O'ylamay so'yla", "Eshitganimday gapiRAMAN" deb nomlash mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, imkon qadar ta'limga ko'proq e'tibor qaratib, eng so'nggi rusumdagagi kompyuter jihozlari, maxsus sinfxonalar, uskunalar (plakatlar, elektron darsliklar virtual xona), zaruriy o'quv vositalari va o'z kasbini sevadigan fidoiy kadrlarni jalb etish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun sinflar kesmida 15 tadan oshmag'an holda guruhlarga bo'lib dars o'tishni tavsiya qilgan bo'lardim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI"
2. Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. Toshkent "O'zbekiston", 2016
3. K. Qosimova, S. Matchanov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi" ;, Toshkent, "Nosir" nashriyoti". 2009.
4. N. Mahmudov, A. Nurmonova, A. Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf uchun darslik "Tasvir" Toshkent 2017
5. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan



foydalanish bosqichlari. *Science and Education*, 1(Special Issue 2), 51-56.

6. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimaiholini o'rgatish xususida. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).

7. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).

8. Saidov, O'. R. (2020). Ona tilidan dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi. *Science and Education*, 1(7), 342-355.

9. Носирова, Т. (2019). Таълими эҷодиёти адибони маорифпарвар ва давраи бедории миллӣ дар мактабҳои таълими ҳамагонӣ. *Адабий алоқалар ва маданиятларнинг ўзаро таъсири*, 271-273.

10. Носирова, Т. (2019). Миллий қадриятлар ва таълим-тарбия жараёни.